

TASAVVUFDA MURSHIDLICK VA MURIDLICK ODOBLARI

(Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni misolida)

Latofat Cho‘lliyeva
BuxDU II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Tasavvufda murshid-u muridlik odoblari muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu maqolada “Lison ut-tayr” dostoni misolida ustoz-shogirdlik munosabatlari, ularning axloqiy mezonlari borasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, “Lison ut-tayr”, doston, murshid, murid.

Tasavvuf ta’limoti taraqqiy qilib borgani sayin murshid-u muridlik munosabatlari, qoida-qonunlari va odob-axloq mezonlari ham ishlab chiqilgan.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarining Zunnun Misriy haqidagi bo‘limida tasavvuf haqida so‘z yuritilib: “Zunnun Misriy q.s. avval kishikim, ishoratni iboratqa kelturdi va bu tariyqdin so‘z aytdi, ul erdi. Chun yana bu tabaqada Junayd q.s. paydo bo‘ldi. Bu ilmga tartib berib, bast qilib kutub bitidi. Chun Shibliy q.s. arog‘a kirdi. Bu ilmni minbar ustiga aytib, oshkora qildi ”. (11-bet)

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, birinchi bo‘lib muridlarga rahnamolik qilgan murshidlar ham ana shular – Zunnun Misriy, Boyazid Bistomiy, Junayd Bag‘dodiy kabilar bo‘lgan.

Xo‘sh, murshid-u muridlik qoidalari nimalar bo‘lgan, ulardagi axloqiy sifatlar qanaqa, ular qanday fazilatlarga ega bo‘lganlar? Alisher Navoiy o‘zining “Lison ut-tayr” dostonida ushbu savolga ham tegishli javob bergan. Murid va murshidning ziynati bo‘lgan go‘zal axloq va odob xususida o‘z falsafiy mushohadalarini ilgari surgan.

Avvalo, murshid va unga xos bo‘lgan axloqiy sifatlar nimalarda namoyon bo‘lishi borasida to‘xtalsak. Manbalarda pir, piri komil, shayx, vali, avliyo kabi bir qancha nomlar bilan tilga olinuvchi murshid chinakam komil inson sifatlarini o‘zida mujassam qilgan. Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” asarida bu borada qimmatli fikrlar aytilgan: “Muridga rahbarlik qiluvchi pirning o‘zi ajzu iztirob yo‘li – tariqat maqomlarini eson-omon bosib o‘tgan, qalbi Illoh ma’rifatiga limmo-lim orif inson bo‘lishi kerak. Pir har jihatdan muridga o‘rnak bo‘lmog‘i darkor: ham bilimning chuqurligi, ham tariqat usullarini yaxshi bilishi, ham ko‘nglining pokligi, nafsini mahv

etganligi va hokazolar bilan ajralib turishi, salobati, so‘zi va harakati bilan, suhbati va nazari, tadbiri va himoyasi bilan muridga ta’sir o‘tkazmog‘i lozim”.¹

“Lison ut-tayr” dostonidagi Hudhud ham o‘zida mana shu sifatlarni to‘la mujassamlashtirgan ulug‘ piri komil edi. Dostonning XV bobidan asarga kirib keladigan Hudhudni Navoiy quyidagicha ta’riflaydi:

“Hudhud ul nuri xiraddin bahramand,
Rohbarlig‘ afsaridin sarbaland.
Zotida izzat sharaf me’rojidin,
Boshida zevar hidoyat tojidin.
Jabroilosoy ayon yuz roz ango,
Qurb arshi avjida parvoz ango”.

Ya’ni Hudhud aql nuridan bahramand va rahbarlik jig‘asi bilan sarbaland bo‘lgan bir qushdirki, uning zotida sharaf va izzat nihoyatda yuksak bo‘lib, boshini to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi toj bezaydi. U arsh oldida parvoz qiladi va Jabrail kabi unga ham yuz xil sirlar ayon bo‘lib turadi. Alisher Navoiy Hudhudning ham tashqi ham ichki sifatlarga e’tibor qaratadi, aql nuridan bahramandlik uning ichki sifatini ko‘rsatsa, boshidagi toji uning tashqi sifatini ifodalaydi. Demak, Navoiy tasviridagi murshid ham ichki ham tashqi go‘zallik va o‘ziga xoslikni mujassamlashtirgan pir sifatida namoyon bo‘ladi.

Hudhudning “arsh oldida parvoz qil”ib, “Jabroil kabi sirlardan xabardor”ligidan bilish mumkinki, u tasavvufning barcha bosqichidan o‘tib, Haqqa erishgan buyuk validir.

Shuningdek, Hudhudning yana ko‘plab sifatlari qushlar nutqidan ham oydinlashadi:

“K-ey daming jonbaxsh-u nutqung dilpisand,
Ikkisi jon-u ko‘ngulga sudmand.
Ham Sulaymon bazmida topqan qabul,
Ham rasul etkon seni andoq rasul.
Xizmatida qurb hosil aylagan,
Yo‘lida qat’iy manozil aylagan.
Amri birla oncha vodiy qat’ etib,
Kim base oliy manozilga yetib”. (35-b)

Ya’ni ey nafasi jonbaxsh-u nutqi dilkash! Ularning har ikkisi ham jon-u ko‘ngilga foydalidir. Sen Sulaymon bazmiga qabul etilgansan va u seni elchilikka yuborgan. Uning xizmatida yaqinlikka erishgansan, yo‘lida necha bekatlarni kezib chiqqansan. Uning amri bilan qanchadan qancha vodiylardan uchib o‘tib, oliy manzillarga yetishgansan.

¹ Komilov Najmiddin. Tasavvuf. – T.:Movaraunnahr – O’zbekiston, 2009. – B. 22-23

Yana bir qush Hudhudga Olloh nazari tushganini ta'kidlab shunday deydi:

“Berdi haq – topding chu ondin rifate,

Har par-u uzbungg‘a bir xosiyate”. (36-b)

Haq senga baland martaba ato qildi, natijada har bir par va a'zoyingda biron-bir xosiyat hosil bo'ldi.

Dostonning LXXXIV bobida bir qush Hudhudga shunday savol beradi: “Ey qushlar ichida aziz bo‘lgan! Sen va biz barchamiz bir jinsdanmiz. Hammamizning qanot-u patimiz bir-birimiznikiga tengdir. Ammo, ayt-chi, sen nima uchun yashirin sirlardan xabardorsan, biz esa bexabar qolganmiz?” Hudhud bu savolga quyidagicha javob beradi: “Chunki menga Sulaymonning ko‘zi tushgan. Zeroki, pok yurakli kishilar kimgakim nazar tashlar ekan, bu nazar tuproqni kimyoga aylantiradi” (127-, 128-b). Ko‘rinadiki, murshidlik istalgan kishining qo‘lidan kelavermaydi. U tanlangan inson bo‘lishi kerak. Hudhudga Sulaymonning nazari tushganligi aytish bilan Navoiy bunga urg‘u beradi. Va nazar tushish orqali murshid g‘ayb ilmlari va sirlaridan ogoh bo‘ladi. Bu sirlardan ogoh bo‘lish ham uni boshqalardan ajratib turuvchi, ustun bir fazilat sifatida o‘rtaga chiqaradi.

Gapining isboti sifatida Hudhud LXXXVI bobda “Shayx Najmiddin Kubroning so‘zi va itga tushgan ko‘zi” hikoyatini keltiradi. Hikoya qilinishicha, kunlardan bir kun sukr¹ vaqtida Najmiddin Kubroning nazari bir itga tushadi. Shu vaqt mo‘jiza sodir bo‘lib, it itlik siyratidan voz kechib, Shayx oldida bosh egadi. Shundan keyin bu it shaharning qayeriga bormasin atrofini to‘da-to‘da itlar o‘rab olib, unga itoat qilganlar. Bu it vafot etganda esa uni izzat-u ikrom bilan Shayx eshigi yoniga dafn qilganlar. Ha, xalqimiz bejizga “Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga” demagan. Zero, ulug‘lar yonida yurganlar ham ulug‘likka dahldor bo‘ladilar. ‘Nafs itini zabun qil”²ib, Haqqa yetishgan avliyolar esa kerak bo‘lsa, “O‘z soyasi bilan Boyo‘g‘lini Humoya aylantira oladi”³. Payg‘ambarday zotga hamdam bo‘lgan Hudhud ham ulug‘lar ulug‘i, chinakam piri murshid edi.

«Agar shayxlik ruknlari nechta, deb so‘rasalar, yettita deb aytgil, – deb uqtiradi Koshifiy “Futuvvatnomayi sultoniy” asarida.

- shayx komil ma’rifat egasi bo‘lsin;

- o‘tkir farosatli, odamshunos kishi bo‘lib, bir nigoh tashlash bilan muridning qobiliyatini ilg‘ay olsin;

¹ Sukr – tasavvuf ta‘limotiga ko‘ra Haq vaslidan sarxushlik, ilohiy jazavaga tushish vaqt.

² “Nafs itin qilsang zabun,

Olamda yo‘q senday shujo”. “Badoyi ul-bidoya”

³ “Poyasi rif‘atda bo‘lg‘ay arshsoy,

Soyasidin bumni qilg‘oy humoy”. “Lison ut-tayr” (39-b)

- yetuk ruhiy-ma'naviy quvvati bo'lsin, toki agar murid tariqat yo'lidan adashsa, unga ma'naviy madad berib, mushkulini oson qilolsin, to'g'ri yo'lga solsin;
- yetarli darajada erkin odam bo'lsin, ya'ni hech narsaga muhtojligi bo'lmasin;
- ixlosi mustahkam bo'lib, riyoy va tamani tark etsin, mol va mansab deb birovga sarg'aymasin, egilmasin;
- rostlik va beg'araz do'stlikni shior qilsin – haq so'zni har yerda, har qanday sharoitda ayta olsin, gapirganda ikkiyuzlamachilik qilmasin;
- qalbida shafqat nuri porlab tursin, murid manfaatini va umum manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yisin".¹

Keling, mana shu mezonlar asosida doston voqealaridan kelib chiqib Hudhud sifatlariga yana bir nazar tashlasak.

Birinchidan, "Shayx komil ma'rifikat egasi bo'lsin" deyilgan. Avvalo, ma'rifikat nima ekanligini oydinlashtirib olaylik. "Ma'rifikat" so'zi arabcha "bilmoq" so'zidan yasalgan. Bu so'zga "O'zbek tilining izohli lug'at"ida quyidagicha izoh berilgan:

MA'RIFAT (arabcha – bilim, fan; ma'lumot; tanishish)

1. Ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat.

2. Tasavvufda har bir so'fiy ruhiy kamolotga erishish yo'lida bosib o'tadigan bosqich(maqom)lardan biri.²

"Lison ut-tayr"ning tasavvufiy mazmundagi asar ekanligidan kelib chiqsak, murshidda bo'lishi lozim bo'lgan ma'rifikat ikkinchi izohga ko'proq mos.

Najmuddin Komilov "Tasavvuf" asarida shunday deydi: "So'fiylar nazarida ma'rifikat fikrdan oldin ketadigan va shubhaga zarracha asos qoldirmaydigan ilmdir. Ma'rifikat ilmi botiniy ilm deb ham yuritilgan".

"Ma'rifikat buyuk Iloh olamlari bepayonligi, istig'nosi – muhtojsizligini, Zoti javharini qalb bilan his etish va ko'ngil bilan tanish demakdir".³

Demak, tasavvufdag'i ma'rifikatli inson bu – aql kuchi bilan anglanadigan barcha ilmlarni bilish barobarida aql ojizlik qiladigan ilohiy ilmlarni ham biladigan, ilohiy axloq bilan shakllangan avliyo zotdir.

O'zlikka eltish yo'lining barcha xavf-u xatarlaridan o'tib bo'lgan Hudhud ham ana shunday komil ma'rifikat egasi edi. Dostonning bir o'rnida aytilganiday "Chun anga ko'p erdi boridin bilik", ya'ni uning ilmi hamma qushlarnikidan ko'p edi.

Koshifiy, shuningdek, murshid o'tkir farosatli, odamshunos, bir nigoh tashlash bilan muridning qobiliyatini ilg'ay oladigan kishi bo'lishi kerakligini aytgan. Hudhud

¹ Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniy. – T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. –B. 24

² O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. –T.: "O'zbekiston", 2020. –B. 567.

³ Komilov Najmuddin. Tasavvuf. – T.:Movaraunnahr – O'zbekiston, 2009. – B. 37-44

ham o‘z shogirdlari iste’dodini yaxshi anglaydigan ustoz edi. Dostonning XXII bobidan boshlab Hudhud birin-ketin 10 ta qushga murojaat qiladi, har birining iste’dodini alohida aytib, ularni sharaflaydi. To‘tining shirinso‘zligi, Tovusning go‘zalligi, Bulbulning xushovozligi, Qumrining o‘tli xonishi, Kaklikning sho‘xligi, Tazavrning xiromon yurishlari-yu chiroyi, Durrojning dilpazir shakli-yu kelishgan surati, Kabutarning tengsiz raqslari, Shohbozning kuch-qudrati, Shunqorning jur’ati Hudhud tomonidan bir-bir maqtaladi. Shu bilan birga, ularga o‘zlari unutgan asl vazifalarini eslatib, bu yo‘lda ularni ruhlantiradi ham.

Koshifiy aytgan sifatlarning uchinchisi ham Hudhudda mujassam. Ya’ni Hudhud yetuk ruhiy-ma’naviy quvvat egasi bo‘lib, agar muridlari tariqat yo‘lidan adashsa, ularga ma’naviy madad berib, mushkulini oson qila oladigan, to‘g‘ri yo‘lga soladigan ulug‘ shayx edi. Bunga dostonning bir necha o‘rinlarida guvoh bo‘lishimiz mumkin. Eng avvalo, Hudhud asar boshidayoq g‘aflatda umr o‘tkazatoygan adashgan qavmni chin manzilga boshlaydi. Safar oldidan uning qushlarga qarata aytgan so‘zlari ham uning nechog‘li fidoiy ustoz ekanligini isbotlaydi: “Ey aftodahol to‘da! Bizga falak baxtiyorlikka erishishda madad bersa, chindan ham bu safarni ixtiyor qilgan bo‘lsangiz, men ham bu yo‘lda jonim boricha, balki jism ichra darmonim qolguncha yordam berayin. Hammangizga hamrohlik qilib, sizni barcha manzillardan ogoh qilayin. Yo‘lda har qanday g‘am yetsa hamdamlik, biron yashirin dard bo‘lsa mahramlik qilayin. Oldingizda mushkul ish ko‘ndalang bo‘lsa, jonim bilan uni hal qilay. Sizga har qanday yaxshi-yomon ro‘para bo‘lsa, uni daf etishga doim tayyor bo‘lay. Uchayotgan paytingiz hamkorlik, qo‘nar joyingizda esa posbonlik qilayin”. (42-,43-b). Ammo XXXII bobdan boshlab qushlarning ayrimlarining safariga putur yetib, ular safardan bo‘yin tovlay boshlaydilar. Dono Hudhud esa ularni to‘g‘ri yo‘lga soladi, nasihatlar qilib, so‘zlarining isboti o‘laroq hikoyalar aytadi.

Hudhudning o‘zi dostonning bir o‘rnida murshidning shogird oldidagi ulug‘ xizmatlarini e’tirof qilib shunday deydi: “Agar nafs kishini shunday xatarga yo‘liqtirsa, uning chorasi murshid tadbiри orqali topiladi. Chunki murshid har qanday illatlarga tabib bo‘lib, xaloyiq uni “pir” ham deb ataydi, ey ziyrak kishi”. (135-b)

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, chinakam murshid eng go‘zal axloqiy sifatlar bilan ziynatlangan, shogirdining manfaatlarini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘yadigan, fikri, so‘zi-yu amali pok bo‘lgan mukarram zotdir.

Endi esa murid odobi, ularning o‘ziga xos fazilatlari haqida so‘z yuritsak. Avvalo, murid so‘zining lug‘aviy ma’nosiga ahamiyat beramiz. “Murid – murod, ya’ni maqsadga intiluvchi odam; murod esa – Alloh taolonning vasli. Muridning asosiy xislati

niyozmandlik, ya’ni talabgor bo‘lish, murshidi komil etagini tutib, aytganlariga so‘zsiz rioya qilishdir”.¹

Murid yo‘l boshidagi odam, unda fazilatlar qatori illatlar ham talaygina. Shu bois ham ustozining ko‘rsatmalariga amal qilib, qalbini poklab borishi zarur. Murshidsiz murid manzilga yetolmaydi. Chunki inson o‘zini o‘zi nazorat qilishi qiyin, kimdir rahnamolik qilib, yo‘l ko‘rsatmasa, yo‘ldan adashishi mumkin. “Hatto eng yaxshi niyatlar ham rahnamo bo‘lmasa, samara bermay, qalbdagi zavq-u shavq noto‘g‘ri yo‘lda sarf bo‘lishi, muhabbat isyonga aylanishi hech gap emas”.²

Navoiy, nafaqat, “Lison ut-tayr” dostonida, balki o‘nlab g‘azallarida ham muridning hayotida murshidning o‘rnii nihoyatda muhim rol o‘ynashini ta‘kidlab o‘tgan. Masalan, “Favoid ul-kibar”ning 309-g‘azalida quyidagi bayt keltirilgan:

Kishiga bo‘lmasa hodi³, padid⁴ emas maqsad,

Hidoyat o‘lmas aning qat’iy etmagil tasdiq.

Yoki “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi mana baytlar ham e’tiborga molik:

Ey ko‘ngul, tan taxtasin bu qa’ri yo‘q girdobdin

Istasang sohilg‘a chekmak, bilki, bu oson emas,

Pir-u iste’dod-u tavfiq⁵ o‘lmasa, bo‘lmas, bu ish,

Kimdururkim bag‘ri bu hasratdin oning qon emas?

Ya’ni maqsadga yetmoq uchun insonga, eng avvalo, pir, iste’dod va madad kerak, deydi Navoiy. Zahiriddin Muhammad Bobur ham bir g‘azalida ustozlar rahnamoligini ulug‘lab: “Yo‘lini topgaymu kishi to rahnamo ko‘rsatmagay”, – deydi.

“Lison ut-tayr” dostonining ham bir necha o‘rnida muridlik shartlari va axloqiy mezonlari haqida so‘z yuritilgan. Jumladan, dostonning LXXIX bobida keltirilgan Shayx San’on hikoyasida ustozga bo‘lgan vafo va sadoqat shogirdning eng yuksak fazilatlaridan biri ekanligi ta‘kidlangan. Rum o‘lkasidagi go‘zal parivashga bo‘lgan ishqi sabab din-u iyemonidan kechgan Shayx San’ondan barcha shogirdlari umid uzib, yuz o‘girganda uning vafodor shogirdi qolganlariga qarata shunday deydi:

“Ey or-nomusni saqlashda to‘ng‘izlardan ham battar bo‘lgan kishilar! Shayx sizning piringiz edi, sizlar unga murid edingizlar. Uning ko‘rsatmasidan barchaga najot umidi yetardi. Faqr aro muridlik qilish sharti shunday: agar kimki qutlug‘ tabiatli bo‘lib, murshid bo‘lsa, uning muridlari ham unga o‘xhash bo‘lishi kerak... Agar u o‘zining yaxshi-yomon kunlarida nima ish qilsa, siz unga taqlid etishingiz lozim” (112-, 113-b)”

¹ Komilov Najmiddin. Tasavvuf. – T.:Movaraunnahr – O‘zbekiston, 2009. – B. 24

² Komilov Najmiddin. Tasavvuf. – T.:Movaraunnahr – O‘zbekiston, 2009. – B. 24

³ Hodi – pir, murshid

⁴ Padid – oshkor, zohir, namoyon, ochiq

⁵ Tavfiq – yordam, madad, ko‘mak

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inson hayotida ustozning o‘rni nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Aytishlaricha, qaysidir mamlakat yoki millat tanazzul yoqasiga kelib qolganda ularni bu halokatdan qutqarish uchun Olloh tomonidan payg‘ambarlar yuborilar ekan. Yakka shaxs hayotidagi evrilishlar esa ko‘pincha yaxshi ustoz ko‘magi, maslahati bilan bartaraf etiladi.

Hudhudning ustoz sifatida Kabutarga aytgan mana bu so‘zлari nihoyatda ibratli: “Tangri senga butun koinotni uchib o‘tguday qanot nasib etgan. Sen bo‘lsang xaloyiq oldida zor-u intizor bo‘lib o‘tiribsan”. (63-b) Darhaqiqat, hozir ham oramizda burgut bo‘lgani holda umrini tovuq katagida o‘tkazayotganlar oz emas. Chinakam yaxshi ustozgina bunday insonlarga o‘z bahosini anglatishi, ularni buyuk ishlar sari ilhomlantirishi mumkin.

Bugungi zamonaviy dunyoda ham ustoz-shogirdlik an’analari jamiyat hayotidagi muhim masalalardandir. To‘g‘ri, bugungi kundagi hamma ustoz ham kamolotga erishgan piri murshid emas, albatta. Bugunning ilmi toliblari ham ruh tarbiyasiga otlangan soliklar emas. Lekin qadim sharqona tarbiya va ta’lim usullari bugungi kunda ham yaxshi natijalar berishi aniq. Xuddi tasavvufda bo‘lgani kabi har bir shogird ustozga yuksak ehtirom ko‘rsatib, ko‘rsatmalariga so‘zsiz amal qilsalar, ustoz esa o‘z shogirdlari kamolotini hamma narsadan ustun qo‘ysa, ta’limda yana-da ko‘proq yutuqlarga erishamiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2020.
2. Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniy. – T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
3. Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Navoiy. “Favoid ul-kibar”. www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. Komilov Najmiddin. Tasavvuf. – T.:Movaraunnahr – O‘zbekiston, 2009.